

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA BILISH FAOLLIGIGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUVLAR

Nabixonova Masturaxon¹

Namangan davlat pedagogika instituti

KEYWORDS

zamonaviy ta'lim,
tadqiqotchilik kompetensiyasi,
mustaqil fikrlash, o'quvchi
faolligi, loyiha metodlari, ilmiy
yondashuv, ta'lim
texnologiyalari, ingliz tili
o'qituvchilari, izlanish faoliyati,
didaktik va psixologik
yondashuv, kognitiv
rivojlanish.

ABSTRACT

Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining bilish faolligini rivojlantirish va tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish, yangi pedagogik yondashuvlar orqali yoshlarni mustaqil fikrlash, ijodiy va analitik qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodikalar va ilmiy izlanishlar haqida yoritilgan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15839174](https://doi.org/10.5281/zenodo.15839174)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Zamonaviy ta'limning rivojlanish xususiyatlari o'quv jarayonida **bilish faolligiga yo'naltirilgan** yondashuvlardan oqilona foydalanish yo'llarini taqozo etmoqda. Yoshlarni kelgusi faoliyatga tayyorlashda yoki hayotda uchrashi mumkin bo'lgan notanish vaziyatlarda eng maqbul yechimlarni topa olish ehtiyoji bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida bir qator sifatlarni talab qiladi. Mazkur talablar muammoli vaziyatlarni ishlab chiqish, g'oyalar yaratish va loyihalarni taklif qilish variantlari sanalib, ularni dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda tadqiqot va loyiha faoliyati orqali qo'llashga o'rgatish maqsadga muvofiq. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish bir qator ish usullarini tizimlashtirishni talab etadi. Bular: muammoli ta'lim, tadqiqot metodi, loyiha metodi, ijodiy topshiriqlar, tadqiqot topshiriqlari va adabiy-nazariy tushunchalarni amalda qo'llay olish bilan bog'liq muammolarni hal qilish kabilardan iborat. Qayd etilganlar adabiy materiallar ustida ishlash barobarida global tarmoq imkoniyatlari: ma'lumotlarni izlash, ijtimoiy tarmoqlar va bloglardagi forum va

seminarlarda muloqot qilishni ham ko'zda tutadi.

B.X.Daniyarovning kuzatishlariga ko'ra, tadqiqot ishlari ta'lim oluvchilarni o'rganilayotgan o'quv material doirasidan chetga chiqishga undaydigan, keng qamrovli va muhim masalani tizimli o'rganish jarayonida olib boriladigan mustaqil tahliliy faoliyatdir². Masalaga shu nuqtayi nazardan qaralganda ko'rilayotgan muammo muayyan o'quv vazifasiga nisbatan bir qator yondashuvlarni talab etadi. Jumladan, adabiy ta'limdan ko'zlangan maqsad – ma'naviy yetuk shaxs tarbiyasida o'quvchilarning yangi bilimlarni kashf etishlari bilan bog'liq tevarak-atrof, ijtimoiy hayotga munosabat va qarashlar ilmiy yondashuv ta'sirida rivoj topadi. Chunki bu kabi jihatlar milliy mentalitetimizga xos ijtimoiy va tarixiy tajribalarni o'zlashtirish orqali kamol topadi.

1-bosqichda ta'lim olayotgan talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalari ularning hissiy-ixtiyoriy va kognitiv sohalariga ta'sir ko'rsatish natijasida shakllanadi. Bunda, asosan, ulardagi mustaqillik va ijodiy fikrlash ko'nikmalariga tayaniladi. Bunyodkorlik xarakteridagi bilim va xatti-harakatlarni o'zlashtirish tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish maqsadini ta'minlashga yo'naltiradi. Bu esa faoliyat subyektlarini aqliy faoliyat jarayoniga olib kiradigan ilmiy yondashuvni taqozo etadi. Ilmiy yondashuv tarkibidagi didaktik va psixologik yo'nalishlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- 1) didaktik yondashuv – ta'lim subyektlari (o'qituvchi, o'quvchi) faoliyatini rivojlantirishga doir metodik vositalarning o'rnini belgilash masalasini ko'zda tutadi;
- 2) psixologik yondashuv – bu talabalarining o'zlari tomonidan mustaqil holda pedagogik-psixologik talablar asosida tashkil etiladigan bilish faoliyatidan foydalanishdir.

Tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishda o'quvchilarni bilish faolligiga yo'naltirishning bir qator shartlari mavjud. Izlanuvchi N.Tosheva ulardan eng muhimlari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi: o'quv jarayonida hamkorlikdagi faoliyatning amalga oshishi bevosita o'quvchi shaxsiga yo'naltirilishi; predmetlararo va ayni bir o'quv predmeti doirasidagi bog'liqlikning yo'lga qo'yilishi; muammoli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish; mustaqil ishlar ko'lamining kengayishi; muvaffaqiyatli ta'limni kafolatlovchi didaktik ta'minotning talab darajasida yaratilishi; o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini e'tiborga olish kabilar³.

Izlanish faoliyatini tashkil qilish jarayonida talabalarining shaxsiy faoliyati ustuvor mavqe egallab, bunda ular subyekt holatiga o'tadilar. Natijada muammoga nisbatan shaxsiy yondashuv yuzaga kelib, zo'riqishlarning o'zni o'quvchilar aqliy imkoniyatlari rivojiga qaratilgan umumlashtirish metodlariga almashadi. Demak, vaziyat o'quvchilarning mustaqilligini ta'minlashga ta'sir qiladi. O'quvchilarning tizimli fikrlash madaniyatini tarkib toptirish yaratuvchanlik faoliyati metodologiyasini takomillashtirishni taqozo etadi. Yaratuvchanlik takrorlanmas va noyob qobiliyat sifatida ijodiy darajadagi fikrlashni

¹ Данияров Б.Х., Иноятова М.Э. Узлуксиз таълим тизимида тадқиқотчилик технологияларидан фойдаланиш // Uzluksiz ta'lim. – Тошкент, 2013. – № 6. – Б. 4.

² Тошева Н., Боймуродова Г. Ўқувчи – билиш жараёнининг субъекти сифатида // Maktab va hayot. – Тошкент, 2012. – № 4. – Б. 9.

talab etadi. Lekin bu oddiy anglash o'ta murakkab bo'lib ko'ringan masalalarni oddiy yechish yo'lidir. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish maqsadga qaratilgan usullarning eng muhimi va ahamiyatlisini tanlash, tadqiq etilayotgan mavzu tag zaminidagi muammoning mavjudligini aniqlash va uning doirasida savollar qo'ya olish, kreativ xarakterdagi g'oyalarni rag'batlantirish, yechimlarni topishning taxminiy rejalarini tuzish yo'llarni taklif qilish kabilardan iborat. Bir guruh tadqiqotchilar aniqlaganlaridek, o'quvchilarning haddan ziyod tez xulosa chiqarishga urinishlari, masalani avvaldan muayyan bir toifaga kiritish, shoshilinch qaror qabul qilishdan qochishlari ... asosiy muammodan og'ishlariga va fikrlash egiluvchanligining yo'qolishiga olib keladi⁴.

Ta'lim jarayonida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishga yangi harakat yoki faoliyat usulini qo'llash, muayyan ta'limiy muammolarini yechish jarayonida foydalanish natijasi sifatida qaraladi. Bunda o'rganilayotgan masala yuzasidan o'quvchilarda tegishli tajriba hosil qilish zarur bo'ladi. O'zlashtirilgan bilimlarni tahlil qilish va baholash natijasi tajriba hisoblanadi. Bu borada metodist L.I.Vovk ta'kidlaganidek, albatta, jarayonda tajriba muhimdir, lekin u allaqachon shakllangan bilim, ko'nikma va malakalardir. Shu bois har bir o'qituvchi o'quvchilarning nafaqat reproduktiv usulda bilim olishlariga, balki ularni o'rganishga o'rgatish vazifasini ham bajaradi. O'qitishga nisbatan yangicha yondashuv Davlat ta'lim standartiga muvofiqlikni talab etadi⁵.

Mustaqil ravishda egallagan bilim ancha kuchli va uzoq vaqt yodida qolishiga asoslanilsa, o'qituvchi talabalarning tadqiqot faoliyati natijasida yuzaga keladigan tajribasini diqqat markazida tutishi kerak. Shu nuqtayi nazardan yondashilsa, tadqiqotchilik bu bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining analitik-sintetik, axborot, kreativ va bashorat qilish qobiliyatlarini birlashtirilgan tizimli shaxsiy xususiyatidir, deyishga asos bo'ladi. Tadqiqotchilik kompetensiyasining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: ijodiy faoliyat texnologiyasini o'zlashtirish; avval egallangan bilim va ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish; muammolarni ajrata bilish; o'rganilayotgan obyektning noma'lum qirralarini ko'ra olish; masala yuzasidan muqobil yechimlarni shakllantirish; o'zini va amalga oshiradigan faoliyatini tasniflay olish qobiliyatlari va h.k.

Tadqiqotchilik faoliyati natijasi sifatida yuzaga kelgan yangiliklar algoritmini quyidagicha tartibda shakllantirish maqsadga muvofiq: kashfiyot – ixtiro, ixtiro – loyiha, loyiha – texnologiya va h.k. Mazkur ketma-ketlik avvaldan belgilangan tayyor reja emas, balki maqsadga qaratilgan tizimli yondashuvdir. Bu tizim analitik-sintetik fikrlash orqali amalga oshadi. Analitik-sintetik qobiliyat bu ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, narsa-predmet, hodisalarning asosiy va muhim jihatlarini ajratib ko'rsatish yoki tavsiflash demakdir. O'quvchilar axborotlarni ko'p hollarda manbalar, texnik vositalar va bibliografik qidiruv ko'nikmalarini egallash orqali oladilar. "G'oyalarni yaratish, bilim va

³ Каримов И., Тожибоев Ф., Қўқонбоев И. Физика фанини ўқитишда ўқувчиларни ижодий фикрлашга ўргатиш усуллари // Uzluksiz ta'lim. – Тошкент, 2002. – № 3. – Б. 77.

⁴ Вовк Л.И. Формирование исследовательских умений на уроках русского языка и литературы // <https://www.1urok.ru/categories/14/articles/21018>

ko'nikmalarni yangi muammoli vaziyatlarga o'tkazish, – degan edi bu haqda pedagog olim A.V.Mironov, – qarama-qarshiliklarni aniqlash qobiliyati ijodiy qobiliyatlar bilan bog'liq. Va nihoyat, biz prognostik qobiliyatlarni o'rganish obyektining rivojlanishini oldindan ko'ra bilish qobiliyati deb hisoblaymiz”⁶.

Tadqiq etilayotgan obyekt va unga xos xususiyatlar haqida muayyan xulosaga kelinganida fikrlash shaklining ahamiyati katta emas. O'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyati DTSga muvofiq tuzilgan matn ko'rinishidagi ta'limiy mahsulot yaratish bilan yakunlanadi. Xususan, ular loyiha, hisobot, ma'ruza, referat, annotatsiya, taqriz va h.k. ko'rinishida rasmiylashtiriladi. Alohida tadqiqotchilik faoliyatining natijasi izlanish olib borilayotgan fan doirasida yangi bilimlarning ochilishi demakdir. Tizimli va maxsus tashkil etilgan jarayon sifatidagi tadqiqotchilik mahsuli esa tadqiqotchilik kompetensiyasining shakllanishi hisoblanadi. Faoliyatning maqsadi – xorijiy til sohasida yangi ilmiy bilimlarni kashf etish. Yangi bilimlar filologik, adabiy tanqid, lingvistika bo'yicha badiiy yoki informatsion matnlarni o'zlashtirish bo'lishi mumkin.

Xulosa o'rnida o'quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishda obyektни kuzatish; turli vaziyatlarda uning xatti-harakatlari yoki xususiyatlarini o'rganish bo'yicha tajribalar o'tkazish; obyekt modelini yaratish, ya'ni uni soddalashtirilgan shaklda ifodalash tavsifi (matn – she'r, hikoya – etyud); nazariyani yaratish, ya'ni modelning miqdoriy tavsifi; nazariyani tekshirish (tajribalar o'tkazish, nazariya va eksperimental natijalarni miqdoriy taqqoslash)ga doir usullar samaralidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Данияров Б.Х., Иноятова М.Э. Узлуksиз таълим тизимида тадқиқотчилик технологияларидан фойдаланиш // Uzluksiz ta'lim. – Тошкент, 2013. – № 6. – Б. 4.
2. Тошева Н., Боймуродова Г. Ўқувчи – билиш жараёнининг субъекти сифатида // Maktab va hayot. – Тошкент, 2012. – № 4. – Б. 9.
3. Каримов И., Тожибоев Ғ., Қўқонбоев И. Физика фанини ўқитишда ўқувчиларни ижодий фикрлашга ўргатиш усуллари // Uzluksiz ta'lim. – Тошкент, 2002. – № 3. – Б. 77.
4. Вовк Л.И. Формирование исследовательских умений на уроках русского языка и литературы // <https://www.urok.ru/categories/14/articles/21018>
5. Миронов А.В. Исследовательская деятельность – основа развития творческой личности [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/issledovatel'skaya-deyatelnost-osnova-razvitiya-tvorcheskoy-lichnosti/viewer>

⁵ Миронов А.В. Исследовательская деятельность – основа развития творческой личности [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/issledovatel'skaya-deyatelnost-osnova-razvitiya-tvorcheskoy-lichnosti/viewer>